

# Namangan viloyati statistika boshqarmasi



## 2017 yil yanvar- dekabr oylarida QURILISH ISHLARI


Joriy yilning yanvar-dekabr oylari bo'yicha viloyatda 1552,9 mlrd. so'mlik **qurilish-montaj ishlari** bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,6 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 94,0 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 126,4 foizni tashkil qildi.


Tumanlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmini ko'payishi kuzatildi. Shu jumladan, **Chortoq** tumanida qurilish - pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 4,1 mlrd.so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 martaga oshdi. **Kosonsoy** tumanida qurilish - pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2,9 mlrd.so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 189,2 foizni tashkil etdi. **Chust** tumanida qurilish - pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 4,2 mlrd.so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 152,3 foizni tashkil etdi. **Yangiqo'rg'on** tumanida qurilish - pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2,9 mlrd.so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 171,5 foizni tashkil etdi.

2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 1552,9 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilib, shundan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 94,0 mlrd.so'm, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 735,4 mlrd.so'm va norasmiy sektorlar tomonidan esa 723,5 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarildi.

## Qurilish ishlari (mlrd so'm)




## 2017 yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati %da





# Mulkchilik shakllari

## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1492,6 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 96,1 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,5 foiz punktga ortdi.

